



Shaxnoza BEKMUROTOVA,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, PhD
E-mail:shaxnoza90.90@mail.ru

TDTU dotsenti N.Xamrayeva taqrizi asosida

O'ZBEK TILIDA JUFT SO'ZLARNING O'RGANILISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi juft so'zlarning o'rganilish davri XX asrning boshlariga to'g'ri kelishi va ularni avvalo rus va o'zbek tili doirasida rus tilshunos olimlari o'zbek tili bilan qiyoslab o'rgana boshlashgan. Keyinchalik esa yurtimizda o'zbek tilshunos olimlaridan N.Mamatov, R.Berdiev, G'.G'ulomov, B.Madaliev, N.Abdurahmonov va U.Tursunov va shu kabi o'nga yaqin olimlar o'zbek tilidagi juft so'zlar va ularning guruhlanishini, yasallish usullarini tadqiq etishgan, shuningdek ularni qo'shma so'zlar tarkibidan ajratgan holda o'rganganliklari keltirilgan. Bu sohadagi asosiy natijalarni asosan A. Hojievning "O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar" nomli asarida ko'rish mumkin.

Kalit so'zlar: juft so'z, nemis tili, o'zbek tili, tilshunoslik, termin, tautologiya, takroriy so'z, qiyoslash, leksik ma'no.

ИЗУЧЕНИЕ ПАР СЛОВ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье период изучения узбекских словесных пар соответствует началу 20 века, и впервые они изучались российскими лингвистами в рамках русского и узбекского языков, сравнивая их с узбекским языком. Б.Мадалиев, Н.Абдурахмонов и У.Турсунов и около десятка подобных ученых изучили пары слов в узбекском языке и их группировку, способы образования, а также сложные слова. То, что они узнали отдельно от их содержания, представлено. Основные результаты в этой области можно увидеть, главным образом, в работе А. Гаджиева «Сложные, двойные и повторяющиеся слова в узбекском языке».

Ключевые слова: двойное слово, немецкий язык, узбекский язык, лингвистика, термин, тавтология, повторяющееся слово, сравнение, лексическое значение.

LEARNING PAIRS OF WORDS IN UZBEK

Annotation

In this article, the period of study of Uzbek word pairs corresponds to the beginning of the 20th century, and they were first studied by Russian linguists within the framework of the Russian and Uzbek languages, comparing them with the Uzbek language. Gulomov, B. Madaliev, N. Abdurahmonov and U. Tursunov and about a dozen similar scientists have studied pairs of words in the Uzbek language and their grouping, methods of formation, as well as compound words. What they have learned separately from their content is presented. The main results in this area can be seen mainly in A. Hajiev's work entitled "Compound, double and repeated words in the Uzbek language".

Key words: double word, German language, Uzbek language, linguistics, term, tautology, repeated word, comparison, lexical meaning.

Kirish. Zamonaviy o'zbek tilida B.Madaliev murakkab so'zlarni tadqiq qilgan bo'lsa-da, murakkab so'zlarning juft so'zlar bilan farqiga ham e'tibor qaratgan. Keyinchalik A.Hojiev juft so'zlarni yanada kengaygan holda o'zbek tilshunosligi rakursida ko'rib chiqadi. Tilshunos o'z ishida juft so'zlarni ularning hosil bo'lish yo'llarini qo'shib tasvirlagan asnoda muhimligini ta'kidlaydi. Ularning parallel va aralash tiplardan farqini, spetsifik xususiyatlari va mezonlarini ko'rsatadi.

J.Muxtorov va U.Tursunovlarning fikricha, o'zbek tilida juft so'zlar alohida bir guruh bo'lib, takroriy so'zlar va qo'shma so'zlar tarkibiga kiradi. A.Hojiev esa juft va qo'shma so'zlar uchun umumiy holda „qo'shma so'z“ terminini qo'llash mumkin emas deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, „juft so'zlar mustaqil leksik ma'noga ega ikki tarkibning teng bog'lanishi asosida tashkil topib, umumlashtirish, jamlik kabi ma'nolarni ifodalovchi so'z, so'zning juft formasi“ [1] hisoblanadi.

Rus tilidagi adabiyotlarda esa juft so'zlarga nisbatan asosan «парные слова», «парные словосочетания», kabi terminlar ishlatiladi.

Turkologiyaga oid adabiyotlarga nazar tashlasak, ularda juft so'zlarga nisbatan turlicha termin qo'llanib kelayotganini ko'ramiz. O'zbek tilidagi adabiyotlarda esa faqat „juft so'z“ termini ko'proq uchraydi. Shuning uchun hanuzgacha o'zbek va rus tilida juft so'zlar terminida muammolarni kuzatish mumkin. Masalan, „slovosochetanie“ terminining o'zbekcha tarjimasi „so'z birikmasi“ degan ma'noni anglatadi. So'z birikmasi deganda birdan ortiq mustaqil so'zning o'zaro grammatik aloqaga kirishuvidan hosil bo'lgan, o'zicha mustaqil fikr ifodalay olmaydigan til birligi tushuniladi. So'z birikmasini hosil qiluvchi so'zlar o'zaro tobe va hokim munosabatda bo'ladi. Juft so'zning komponentlari esa hokim va tobe munosabatda emas, balki tenglik munosabatida bo'ladi. Ikkinchidan «парные словосочетания» termini o'zbek tiliga tarjima qilinganda, „juft so'zlar“ ma'nosini beradi. Bundan kelib chiqqan holda ikki so'zning juftlashishi emas, balki ikki so'z birikmasining juftlashishi tushuniladi [2]. Shu kabi rus va o'zbek tilshunos olimlarida bugungi kunga qadar aynan juft so'zlarni nomlashda turli xillik mavjud.

Ushbu sohada aynan o'zbek tilida juft so'zlar ustida tadqiqot olib borgan tilshunos akademik A.Hojievga ko'ra o'zbek tilida juft so'zlarning o'ndan ortiq yasash usullari bor. Ularni tadqiq etishdan avval quyidagi misollarni kuzatamiz: el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to'rt, o'n-o'n beshta, bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldab-suldab, so'ramay-netmay, kiyim-kechak, adibadi, ikir-chikir, duk-duk, taq-tuq, qop-qop, ming-ming (ming-minglab), bitta-bitta (bitta-bittalab), baland-baland, chopachopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to'rt, o'n-o'n beshta, kabi [3].

O'zbek tilida juft so'zlarning yasash usullari ham nemis tilidagi juft so'zlar bilan o'zaro farqli hamda o'xshash yasash usullariga egadirlar:

Qismlari o'zaro ma'nodosh (sinonim) bo'lgan so'zlarning birikuvidan: baxt-saodat, orzu-havas, zavq-shavq, kuch-qudrat, yakka-yagona;

Ma'nosi jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlardan: ota-ona, aka-uka, opa-singil, qozon-tovoq, egri-bugri;

Ma'nosi bir-biriga zid bo'lgan so'zlardan: katta-kichik, yaxshi-yomon, oq-qora, past-baland, uzun-qisqa;

So'zlarni takrorlash orqali: katta-katta, tez-tez, uzun-uzun, choy-poy;

Juft so'zlarning har ikkala qismi mustaqil ma'noli so'zlardan tashkil topadi: aka-uka, qozon-tovoq, ur-yiqit;

Juft so'zlarning birinchi qismigina mustaqil ma'no bildiradi, ikkinchi qismi ma'no bildirmaydi: temir-tersak, yig'i-sig'i, hayot-mamot, latta-putta;

Juft so'zlarning har ikkala qismi ham alohida holda ma'no ifodalaymaydi: g'ala-g'ovur, ikir-chikir, uvali-juvali, alg'ov-dalg'ov, lash-lush;

Ayrim juft so'zlarda esa ma'no umumlashgan bo'ladi: ota-ona, kecha-kunduz, past-baland, qozon-tovoq;

Ayrim juft so'zlar tarkibidagi birinchi so'z butunlikni, ikkinchi so'z esa uning qismini ifodalaydi: tog'-tosh, gap-so'z;

Juft so'zlarning ba'zilarida tarkibidagi so'zlarni o'rmini almashtirib qo'llash mumkin: asta-sekin (sekin-asta), past-baland (baland-past)

Juft so'zlar o'zbek tilida (-) chiziqcha qo'yilgan holda yoziladi:

juft so'zlar orasida -u(-yu) bog'lovchisi qo'llansa, bog'lovchidan oldin chiziqcha ishlatiladi: oq-u qora, kecha-yu kunduz, do'st-u dushman;

-ma, -ba yordamida birikkan so'z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: yuzma-yuz, rang-barang, qadam-baqadam kabi; ko'makchi fe'l bir xil shaklda bo'lsa, chiziqcha bilan yoziladi: yozdi-oldi, borasan-qo'yasan, uxlabman-qolibman kabi;

sinonimlar yoki antonimlari yonma-yon qo'llanishi natijasida juft so'zlar hosil bo'ldi. Mehr-oqibat, aka-uka, katta-kichik, unda-bunda, urf-odat, baxt-saodat, o'g'il-u qiz, qarindosh-urug', tevarak-atrof, kuch-qudrat, yo'l-yo'lakay, kirim-chiqim;

juft so'zlar bir so'zning takroridan ham hosil bo'ladi: yosh-yosh, katta-katta;

juft so'zlar bir so'zning takroridan hosil bo'lganda, ikkinchisining bosh bo'g'inida tovush o'zgarishi yuz berishi mumkin: non-pon, gap-map kabi;

Shuningdek, o'zbek tilida juft so'zlar strukturasiga ko'ra tasodifiy yo'l bilan yasalgan so'zlarga ancha o'xshasa ham, aniqlovchi va aniqlanmish tipidagi qo'shma so'zlardan bir qancha tomonlari bilan ajralib turadi. Bu holat nemis tilidan o'ziga farq qiladi. Quyida ularning turlarini tahlil qilib chiqamiz.

1. Juft so'zning komponentlari orasidagi grammatik aloqa, bog'lanishdir, aniqlovchili qo'shma so'zlarda esa tobelanishdir. Masalan: tog'-tosh, tog'-u tosh, tog' va tosh va boshqalar.

2. Juft so'zlarda ba'zan komponentlar grammatik va semantik holatlarni saqlagan holda o'rin almashtira oladilar: go'sht-yog' – yog'-go'sht. Ularning o'rin almashishlari mumkin bo'lmasa, uning sababi semantik yoki boshqa xarakterda bo'ladi, lekin grammatik xarakterda bo'lmaydi.

3. Urg'u jihatdan ham juft so'zlar farqlanadi, ya'ni oxiridan boshqa komponentda ikkinchi darajali urg'uning bo'lish holati uchraydi: qovun-poliz – qovun-tarvuz. Ammo bunday fonetik birikish, zichlik, yaxlitlanish juft so'zlarda kam uchraydi.

4. Komponentlarning kategorial nuqtayi nazardan ham farqlanadi. Juft so'zning komponentlari bir xil so'z turkumlaridan iborat bo'ladi. ot+ot (yoki ot vazifasida qo'llangan boshqa so'z), sifat+sifat kabi.

5. Bundan tashqari o'zbek tilida nemis tilidan farqli o'laroq juft so'zlar ham uchraydi. Masalan: qo'yib-qo'yib kompleksi: 1) reduplikatsiya (harakatning takrori yoki uzoq davom etishi ma'nosini bildiradi); 2) analitik fe'l: harakatning o'rinsiz bajarilganligini – bajarilmasligi kerak bo'lgan ishning bajarilganligini bildiradi.

Shuningdek, xuddi aynan nemis tilidagi kabi juft so'zlar turli sabablar (ko'pincha, fonetik o'zgarishlarning ta'siri) bilan soddalanish hodisasiga uchrashi ham mumkin: og'a-ini (og'ayni), oshiq-moshiq (oshiqmashuq). Fonetik o'zgarishning yana biri quyidagichadir: ovoq-movoz (ovoq-povoz). Demak, bu o'rinda unlining o'z uzunligini yo'qotishi komponentlarning zichroq birikishiga yordam bergan, fonetik o'zgarish, har xillik, semantik differentsiatsiya uchun xizmat qiladi.

O'zbek tilida juft so'zlar – kopulyativ tipdagi qo'shma so'zlar deyarli hamma so'z turkumiga xos, lekin u ot, sifat va ravish turkumlarida ko'p uchraydi: ota-ona, kirim-chiqim, borish-kelish, erta-kech, yer-ko'k, oq-qora rang (oq qora rang birikuvi boshqa), past-baland gaplar, yuqori-quyi gaplar (har-xil, yaxshi-yomon gaplar), besh-olti, o'ttiz-qirq va boshqalar. Fe'llar masalan, o'qidi-tashladi tipida juft shaklga ega bo'lganda, keyingi element modifikatorlik vazifasini bajaradi, ya'ni u so'zning analitik shakliga to'g'ri keladi, lekin har ikki element bir xil shaklda bo'ladi, masalan, borish-kelish, kirish-chiqish, o'qiyan-tashlaysan, aytding-qo'yding kabi. Aynan shu holat nemis tilidagi kommen, gehen, stellen, sehen fe'llari ishtirokidagi juft so'zlarda uchraydi.

Hozirgi o'zbek tilida xuddi nemis tilidagi kabi juft so'z yasashning eng mahsuldor usuli affiksatsiya usulidir. Yana sintaktik usul bilan so'z yasash muhim turlardan biridir. Lekin juft so'zlarda haqiqiy ma'nodagi so'z yasash ko'rinishi, ya'ni ikki so'zni o'zaro bog'lash orqali yangi so'z hosil qilish hodisasi hozirgi o'zbek tilida uchramaydi, lekin buni nemis tilida kuzatish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1985. – 36 b.
2. Imyaminova Sh. S., Tilovova G. Nemis va o'zbek tillarida juft so'zlar. –T.: Mirzo-Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2008. – 12 B.
3. https://uzsmart.uz/kitoblar/files/Darsliklar/Ona%20tili/imlo%20lug%27at%20_%5Buzsmart.uz%5D.pdf

4. Bekmuratova Sh.A. Classification of could words in german and uzbek. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) SJIF Impact Factor: 7.001, IDI I.F. Value: 1.241, ISSN:2455-7838(Online), DOI:10.36713/epra2016. Volume-5, Issue-5 may-2020. Page:471-474
5. Imyaminova Sh.S., Bekmuratova Sh.A. Classification of could words in german and uzbek. Classification of could words in german and uzbek// PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, Volume 17 (6), 2020. 7333-7339. Retrieved from <http://palarch.nl/index.php/jae/article/view/2112>
6. Imyaminova Sh.S., Bekmuratova Sh.A. Grammar and stylistic characteristics of pair words in modern german and uzbek languages. Academia: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com> DOI: 10.5958/2249-7137.2021.02344.2 ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 10, October 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492
7. Imyaminova Sh.S., Bekmuratova Sh.A. Structural-Semantical Features of Pair Words in Modern German and Uzbek Languages. Structural-Semantical Features of Pair Words in Modern German and Uzbek Languages 5517 Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume 12, Issue 9, August 2021: 5517–5523
8. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. док. дисс. ... - Т.: 1993. - 297 б